

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida	247
S.Z.Yoʻldoshev	
Sport faoliyati yoʻnalishi talabalariga valeologiya fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari	251
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻquv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning taʼlim texnologiyasi	256
Sh.M.Bazarbayeva	
Yettisuv viloyatida oʻlat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
O.X.Mahamadjonova	
Bolalar folkloriga oid oʻn ikki choʻp va lapar oʻyinlari tavsifi va taʼrifiga doir	268
G.A.Donisheva	
Tarixiy jihatdan til leksikasining oʻrganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida)	273
L.A.Xaitov	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borligʻi) va ruhiy uzviyligi, inson oʻzligi (nafsi) muammosi.	276
Sh.S.Kodirova	
Teaching English language to geology students	280
S.S.Xoʻjiyeva	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish	283
F.I.Sharipova	
Developing reading comprehension at future nurses	288
U.B.Usmonova	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi	294
K.X.Avazov	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе	297
A.N.Qosimov	
Sport vositasida oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va gʻurur-iftixot tuygʻusini shakllantirishning pedagogik zarurati	303
A.T.Nishonov	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari	310
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot oʻrtasidagi aloqadorlik muammolari	314
U.D.Xudoyorov	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat koʻrsatkichlarining xususiyatlari.....	318
S.U.Allayarova	
Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
Ch.T.Qurbonova	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
Z.A.Kendjaeva	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat.....	333
L.S.Sultonova	
Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish	338
Sh.T.Temirov	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi oʻrni.....	341
S.X.Kaxxarov	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili	346
A.R.Joʻrayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining oʻziga xosligi	351
M.C.Muxamedova	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
G.J.Tulenova	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



UO'K: 37.091

SPORT VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA G'URUR-IFTIXOT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ОСОЗНАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ЧУВСТВА ГОРДОСТИ У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ СПОРТА****PEDAGOGICAL NEED FOR FORMING AN AWARENESS OF NATIONAL IDENTITY AND A SENSE OF PRIDE IN STUDENTS THROUGH SPORTS****Qosimov Akmal Nasridinovich** 

Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola o'quvchilarning sportga doir munosabatlarini to'g'ri shakllantirish, sportga yo'naltirish asisda ularda yurt sharafini munosib himoya qilish hissini shakllantirishga doir pedagogik tahlillar keltirilgan va jismoniy ta'limda o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarinigina emas, ruhiy imkoniyatlari – irodasi, sabri, chaqqonligini ham tarbiyalash orqali ularda milliy identifiklikni rivojlantirish vazifalari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье представлены педагогические анализы по правильному формированию отношения студентов к спорту, на основе их спортивной ориентации, по формированию у них чувства достойной защиты чести страны, а не только физических возможностей студентов в Проанализированы физические воспитания, но и их умственные способности - воля, терпение, задачи развития у них национального самосознания путем воспитания ловкости.

Abstract

This article presents pedagogical analyzes on the correct formation of students' attitude towards sports, based on their sports orientation, on developing in them a sense of worthy defense of the honor of the country, and not only the physical capabilities of students in Physical education, but also their mental abilities - will, patience - are analyzed, the task of developing their national self-awareness by cultivating dexterity.

Kalit so'zlar: Milliy g'urur va iftixor, salbiy illatlar, milliy identifiklik, Umumiy o'rta ta'lim tizimi, jismoniy kamolot, jismoniy va milliy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish, hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish, jismoniy imkoniyatlar, yangi taraqqiyot strategiyasi, sport zaxirasini shakllantirish tizimi, ommaviy sportga tayyorlash.

Ключевые слова: Национальная гордость и гордость, негативные пороки, национальная идентичность, система общего среднего образования, физическая зрелость, развитие физических и национально-духовных качеств, развитие двигательных навыков и навыков, необходимых для жизни, физические возможности, новая стратегия развития, система формирования спорта резервы, подготовка к массовому спорту.

Key words: National pride and pride, negative vices, national identity, general secondary education system, physical maturity, development of physical and national-spiritual qualities, development of motor skills and skills necessary for life, physical capabilities, new development strategy, system of formation of sports reserves, training to mass sports.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018-yil 5-martdagi «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5368-

son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-oktyabrdagi «O'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 864-son qarori va 2019-yil 13-fevraldagi «2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 118-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik, tibbiy va tarbiyaviy asoslari, o'quvchilarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish jarayonini loyihalash masalalari A.Abdullaev, F.Kerimov, K.Maxkamjonov, H.Meliev, B.Nigmanov, A.Nurullaev, R.Salomov, K.Raximqulov, T.Usmonxo'jaev, F.Xo'jaev, J.Eshnazarov, B.Haydarov, S.Arzumanov, I.SHamsieva, A.Akramov, T.Yunusov, A.Hamroqulov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda milliy identiklik masalalari, milliy o'zlikni anglash, milliy mentalitet va millatlararo munosabatlarni o'rganish masalalari F.Abdurahmonov, J.Bahromov, N.Nazarov, R.Rahmonov, Z.G'afurov, Q.Xonnazarov, S.Atamurodov, A.Achildiev, A.Ashurov, B.Qosimov, B.Karimov, SH.Qahhorova, SH.Madaeva tadqiqotlarida o'z aksini topdi, mazkur dissertatsiya ishini yoritishda va tarixiy talqinini berishda xizmat qilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.Ashmarin, V.Balsevich, M.Vilenskiy, G.Germanov, S.Kramskoy, L.Lubisheva, O.Masalova, L.Matveev, Yu.Nikolaev, S.Pavlov, I.Sechenov, V.Smolevskiy, A.Sunik, G.D.Xarabugi kabilar o'quvchilarni jismoniy tarbiyasini tashkil etish jarayonlarining modernizatsiyalashning innovatsion texnologiyalari, sportga doir madaniyatini shakllantirish masalalarini o'rganishgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida S.Abashin, I.Shteynberg, N.Lebedeva, G.Soldatova, S.Ikonnikova, L.Ionin, T.Stefanenko, N.Antonova va boshqa olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida identiklik masalalarining jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va sotsiomadaniy meros bo'lib qolishini ta'kidlab, ijtimoiy psixologik nazariy muammo sifatida o'rganganlar.

Bugungi kunda o'quvchilarni sportga yo'naltirish asosida ularning jismoniy va ruhiy tarbiyalash bilan birga ularda milliy identiklikni tarbiyalash, ya'ni ularda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish, fidoyi va vatanga sadoqatli shaxs qiyofasini yaratish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa sportning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish, sport sohasida erishilgan natijalar, sportchilarning xalqaro maydondagi yutuqlarni targ'ibot-tashviqotlar asosida yetkazish vazifalari yuzaga kelmoqda. Bu o'quvchilarda milliy identiklikni, mansublik va daxldorlik tuyg'usini shakllanishiga asosi bo'lishi kelib chiqmoqda.

Buning uchun farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, yoshlar ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish muhim va dolzarb masaladir. Zero, yoshlikdan to'g'ri singdirilgan tarbiya bilan u kelajak hayotga qadam qo'yadi. Yoshlar xulq-atvoridagi agressivlik, egoistik, tajanglik, urishqoqlik, shoshqaloqlik, palapartishlik, qo'rslik kabi salbiy odatlar o'z vaqtida bartaraf etib borilmasa, katta bo'lganida bu salbiy odatlar uning hayoti va kelajagiga xavf solishi mumkin. Ayniqsa, bunday yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoni o'ta murakkab kechib, ularda muloqotchanlik, tendoshlari bilan do'stona munosabatlarga kirishish jarayoni qiyin kechadi. Shu bilan birga ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usi shakllanmaydi. Bu esa, jamiyatda ijtimoiy barqaraorlik va hamjihatlik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayondagi eng muhim va samarali vositalardan biri sport bo'lib, u o'quvchilarni turli salbiy illatlardan muhofaza qilish bilan birgalikda ularda milliy o'zlikni anglash va undan g'urulanish tuyg'usini ham rivojlantiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, mazkur maqola o'quvchilarning sportga doir munosabatlarini to'g'ri shakllantirish, sportga yo'naltirish asosida ularda yurt sharafini munosib himoya qilish hissini shakllantirishga doir pedagogik tahlillar keltirilgan va jismoniy ta'limda o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarinigina emas, ruhiy imkoniyalari – irodasi, sabri, chaqqonligini ham tarbiyalash orqali ularda milliy identiklikni rivojlantirish vazifalari tahlil qilingan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnodan hayotga, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. Bu

ILMIY AXBOROT

jarayondagi umumiy vazifalarga bilim berish, jismonan tarbiyalash va sog'lomlashtirishni kiritish mumkin. Shuningdek, o'quvchilarda sport vositasida milliy identitlikni shakllantirishning xususiy vazifalari ham mavjud bo'lib, ularga: o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish; turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo'lish uchun shu yoshga xos bo'lgan jismoniy va milliy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish; hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik kerak bo'ladiganlari bilan qurollantirish; o'quvchilarga milliy identitlikka oid yangi bilimlarni berish; o'quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishiga qiziqtirish va unga odatni shakllantirish kabilar kiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab ta'limi jarayonida o'quvchilar bilim olish va aqliy rivojlanish bilan birga jismoniy holati, biologik rivojlanishi, organizmining tuzilishi ham takomillashib boradi. Shu bois boshlang'ich ta'limdayoq o'quvchilarning tabiiy shakllanishida garmonik rivojlanishini yo'lga qo'yish kerak bo'ladi. Bu orqali markaziy nerv tizimidagi boshqarish funksiyasi, harakat tayanch apparati faoliyati ishini, yurak-tomir, nafas olish organlari ishini yanada rivojlantirishga e'tibor beriladi, bulardan tashqari qomatni to'g'ri tuta bilishga o'rgatiladi. Bu jarayonga shaxsiy gigiyena qoidalariga oid bilimlar qo'shib berish bilan tarbiya jarayoni takomillashtirish talab etiladi.

Sport ham musiqa san'atidek millat, yurt nomini jahonga tez tanitadi, shuningdek, u fuqarolarning faxr, iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni o'zbek sportining buguni va istiqboli bilan tanishtirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

O'quvchilarning o'zbek sportining yorqin namoyondalari – Rufat Risqiev, Mixayil An, To'lagan Ishoqov, Birodar Abduraimov, Mirjalol Qosimov, Azamat Abduraimov, Muhammadqodir Abdullaev, O'tkirbek Haydarov, Bahodir Sultonov, Artur Grigoryan, Ruslan CHagaev, Akobir Qurbonov, Abdulla Tangriev, Rustam Qosimjonov, Nodirbek Abdusattorov, Javoxir Sindarov, Bahodir Jalolovlarning faoliyati bilan yaqindan tanishishlari uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor berish zarur. Maktab ta'limida jahon va respublika miqyosida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan sportchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish o'quvchilarga ulardan namuna olishlariga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish ham ularning kelgusida sport sohasida mamlakat obro'sini ko'tarishlari uchun asos bo'lishi mumkin.

O'quvchilarda sport vositasida milliy identitlikni shakllantirish va ularning jismoniy imkoniyatlarini sport orqali namoyon qilishga imkon berishning asosiy vosita qilib boshlang'ich sinflar uchun gimnastika, yengil atletika, harakatli o'yinlar, ekskursiya va sayohat hamda tabiat qo'ynida o'ynaladigan o'yinlar va jismoniy mashqlar olingan bo'lsa, umumiy o'rta ta'limning yuqori bosqichlariga jismoniy tarbiya va sport turlari bilan birga sog'ligi yomonlashgan bolalarga maxsus mashg'ulotlar – davolash gimnastikasi tarzidagi yoki maxsus tibbiy guruhga ajratilgan bolalar uchun alohida mashg'ulotlar yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarda sport vositasida milliy identitlikni shakllantirish jarayoniga yo'naltiruvchi dars mashg'uloti – jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tizimli shakli bo'lib, bir xil yoshdagi, bir xil kontingentdagi bolalarga belgilangan vaqt ichida dastur mavzularini o'qitish jarayoni tushuniladi. Bunday tizimli va aniq yosh chegarasi uchun mo'ljallangan mashg'ulotlar o'quvchilarning salomatligiga, sog'lom turmush tarzini shakllantirishlariga ijobiy ta'sir ko'rstadi. Shu bilan birga ularda sport turlariga, sportning ijtimoiy hayotga va salomatlikka ko'rsatadigan ta'siriga shaxmiy va intiluvchan munosabat shakllanadi. «Sog'lom turmush, faol optimal harakat aktivligi o'zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan. Umumiy va maxsus adabiyotlarning taxlili va mustaqilligimizdan keyingi davrda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning taxliliy natijalari mavzu bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazish lozimligini qo'rsatmoqda. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati tarkibidagi sog'lomlashtirish trenirovkalarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a'zosini sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi isbotlangan» [1]. Shunday ekan, jamiyatni, millatni sog'lomlashtirish orqali uni ulug'vor maqsadlar sari yo'naltirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida» PF-5924-son Farmonida ham «jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida» [2] ko'plab chora-tadbirlar belgilanayotganligi qayd etilgan holda «jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati» ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Bu orqali jamiyatni sog'lomlashtirish, insonlarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, shu bilan birga yoshlarni ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlariga yo'naltirish, jismoniy imkoniyatlarini oshirish, jismoniy imkoniyatlarini sport turlaridan o'zini namoyon qilishga qaratish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Mazkur Farmonda o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish jarayoniga yo'naltirish uchun sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida «Bolalar sport o'yinlari»ni o'tkazish va bu orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratishga qaratilgan umumtadbirlarni alohida o'rni mavjud. Shu bilan birga umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida «Umumta'lim maktab sporti» festivali, «Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa» ko'rik-tanlovini bosqichma-bosqich o'tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, nominatsiyasini joriy etish» [2] ham o'quvchilarda ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga yo'naltirishga kuchli motivatsiya vazifasini o'taydi. Shuningdek, mazkur «Bolalar sport o'yinlari»ning jamoaviy o'yin turlari bo'yicha respublika bosqichi «g'olib va sovrindorlarni tayyorlagan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini respublika kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan egallagan 1-o'rin uchun mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining — 6 baravari, 2-o'rin uchun — 4 baravari, 3-o'rin uchun — 3 baravari miqdorida bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirla»nishi, «umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya fan olimpiadasining g'olib va sovrindorlarini tayyorlagan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport ta'lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmasdan, ularga: tuman yoki shahar bosqichi g'olib va sovrindorlarini tayyorlagani uchun — ikkinchi malaka toifasini, viloyat bosqichi g'olib va sovrindorlarini tayyorlagani uchun — birinchi malaka toifasini va respublika va xalqaro musobaqalar g'olib va sovrindorlarini tayyorlagani uchun — oliy malaka toifasini to'g'ridan-to'g'ri berish» [2] tartibining joriy etilishi ham belgilangan bo'lib, bu tartib o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishda o'qituvchi-murabbiylar faoliyatini rag'batlantirish, bu faoliyat jarayonida ularning o'rnini va munosib mehnatini e'tirof etishga qartailganligi bilan ajralib turadi.

O'quvchilar o'rtasida milliy identiklikni tarbiyalashga qaratilgan sport tadbirlarini ommalashtirish va bu orqali ularda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, shu bilan birga ularni sportga sog'lom yo'naltirish, sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun ularning salomatliklarini tizimli nazoratga olish maqsadida «sport turlari bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan hududiy terma jamoa a'zolarini hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining o'smirlar bo'limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a'zolarini tuman yoki shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib borish mexanizmini joriy etish» [2] ga qaratilgan izchil tashkiliy-huquqiy ishlarni amalga oshirilayotganligi ham bu boradagi ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish tizimini takomillashtirishda kichik yoshdan bolalarda sport bilan shug'ullanishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda ularning muayyan ko'rsatkichlari asosida qaysi sport bilan shug'ullanishini aniqlash, mustaqil rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish talab etiladi. SHU bilan birga, sog'lomlashtirish va boshlang'ich tayyorlov bosqichlarida bolalarni birinchi navbatda umumiy jismoniy rivojlanish va biror-bir sport turiga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, shug'ullanuvchilarning «jismoniy tarbiya» fanini o'zlashtirishga ko'maklashish ham uzluksiz ta'limning ilk bosqichlaridagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda axborotlar orqali insonlarga ta'sir ko'rsatish eng oson va samarali usulga aylanib ulguragan sharoitda sog'lom turmush tarzining eng muhim tarkibiy qismi

ILMIY AXBOROT

sifatida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish hamda bu jarayonda yuqori darajali axborotlashtirishni va multimedia mahsulotlaridan foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'quvchilarda sport vositasida milliy identifiklikni shakllantirish jarayoniga yo'naltirish, qiziqishlarini oshirish va uladagi motivatsiyani rivojlantirish mumkin bo'ladi. Buning uchun esa, «ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish loyihalarini qo'llab-quvvatlash, jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish, yetakchi televidenieda axborot-tahliliy ko'rsatuvlar turkumini efirga uzatib borish, yosh avlod o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni, ayniqsa, jismoniy sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda Internet imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etish va targ'ib qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy, ijtimoiy-ommabop materiallar hamda qo'llanmalarni nashr etish» [3] talab etiladi.


O'quvchilarni jismoniy tarbiyalash tizimida o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish printsiplari muhim ahamiyatga ega. Ular yosh avlodni ilk o'quvchilik yoshidan jismoniy va ma'naviy kuchga to'liq, garmonik rivojlangan, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash haqidagi ko'rsatmalari bilan belgilanadi. O'quvchilarda jismoniy qobiliyatni, harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan, o'quvchi shaxsini tarbiyalashni birgalikda hamda ayni paytda har tomonlama (ahloqiy, aqliy, estetik, mehnat tarbiyasi) amalga oshiradigan yondashishni ko'zda tutadi. Jismoniy tarbiya tizimidagi bunday majmuaviy yondashish «kishilarning individual xususiyatlari, yosh rivojlanishi bosqichlari xususiyatlari, hayotning u yoki bu davrida asosiy faoliyat sifatida tanlanadigan jismoniy tarbiya faoliyati turlari xususiyatlari va boshqa vaziyatlarga ko'ra konkretlashtiriladi» [4].

Umumiy o'rta ta'lim tizimi o'qitish jarayonida o'quvchilarning sport faoliyatiga yo'naltirishga qaratilgan jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlari vazifalari bolalarni jismoniy tarbiya dasturda tavsiya qilingan mashqlarni bajarishga, o'rganilgan mashqlarni mustahkamlash va takomillashtirishga, shuningdek, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga hamda o'rganilgan mashqlarni turli sharoitda amaliyotda qo'llashga o'rgatishga yo'naltiriladi va shu orqali ularning jismoniy imkoniyatlari baholanadi. Turli jismoniy mashqlarni bajarish imkoniyati va qobiliyalarini baholash orqali ularni sport turlariga yo'naltirish mumkin bo'ladi. SHu bilan birga maktab ta'limidagi jismoniy tarbiya o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga tayyorlashi, yo'naltirish, sag'lomlashtirish vunktsiyasini yuqori darajada bajarishi kerak bo'ladi. O'quvchilarni sog'lomlashtirish bilan bog'liq faoliyatga yo'naltirish jamiyatda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, maktabda o'qitiladigan barcha fanlarni tabiat va inson salomatligiga bog'liq ekanini tushuntirib o'rgatilganda uning bolalar ongiga ta'siri kuchli bo'ladi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlashda, ularni shaxsiy har tomonlama uyg'un kamol toptirishda, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor bo'limlari uchun hayotiy muhim bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarni egallashda muhim o'rin kasb etadi. Zero, maktab yoshi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tez o'sish davridir, shuning uchun maktab o'quvchilarni jismoniy rivojlanish, normal o'sishni ta'minlash uchun ham kuch quvvatni sarflash zarur.

Jismoniy ta'limni rivojlantirish asosida o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish bilan birga ularning ruhiyatini ham barqarorlashtirish, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ta'lim metodikasini yaratish yuksak ma'naviy va axloqiy salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali va jismonan yetuk, kuchli irodali o'quvchilarni tayyorlash masalalari doirasida xorijiy tajriba, rivojlangan davlatlar amaliyoti o'rganilmoqda. O'rganilgan tadqiq va tahlillarga ko'ra aqliy va jismoniy yetuk mutaxassislar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiya jarayonini davr talablari asosida tashkil etish, ta'lim – tarbiya ishlarini samaradorligini oshirish uchun uning yo'nalishlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish talab etiladi. Zero, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot, oldimizga qo'yayotgan bir – biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimini aynan ta'lim – tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor

ishonch hosil qilamiz» [5]. Darhaqiqat, ijtimoiy muammolarning barchasi ta'lim-tarbiya, jamiyatning ilmiy salohiyati va dunyoqarashining yuksak emasligi bilan o'lchanadi.

Umuman olganda o'quvchilar dunyoqarashidagi o'zgarishlar, kelajakka nigilistik munosabat va ishonch hissini yo'qolishi bilan bog'liq o'zgarishlar biror-bir shaxsga xos subyektiv xulq-atvor natijasi emas, balki subyektiv va obyektiv omillar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. O'quvchilar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarning kelib chiqish sabablari bir necha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bizningcha ular quyidagilar hisoblanadi:



XULOSA

Xulosa qilganda, sport vositasida o'quvchilarda milliy identiklikka doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish, millatning ruhiy holatini barqarorlashtirish, ta'lim sifatiga erishish, o'quvchilarning matonati, irodasi va ma'naviy kuchini ijtimoiy taraqqiyotga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasihatgo'ylikdan qochish kerak. O'quvchilarning vatan va elyurt taraqqiyotida ularning bevosita

ILMIY AXBOROT

mas'ul ekanliklari, tarixda otabobolarimiz hayoti yuksak ma'naviyat egasi ekanligimizga asos bo'lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo'shilgan holda, bo'lajak ma'lum kasbkor egalari sifatidagi bilimlarini o'rgangan tartibda yondashish kerak bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnodda hayotga, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

Sport ham musiqa san'atidek millat, yurt nomini jahonga tez tanitadi, shuningdek, u fuqarolarning faxr, iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchilarlar bilan ishlash jarayonida ularni o'zbek sportining buguni va istiqboli bilan tanishtirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Норқобилов М.Н., Мирходжаева З.С., Маҳмудов В.В. Жисмоний маданият ва спорт машғулотларида соғлом турмуш тарзини талабалар онгига сингдиришда педагогик ёндашувлар. Монография. Тошкент.: ТИҚХММИ, 2019, -Б. 6-7.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» тўғрисидаги ПФ-5924-сон Фармони. 2020 йил 24 январь.

3. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси. 2020 йил 24 январь.

4. Губа В.П. и др. Измерения и вычисления в спортивно-педагогической практике. Москва.:Спорт академ Пресс, 2002. –С.86.

5. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2018, -Б.37.